

“ALPOMISH” DOSTONI HASAN PAKSOY TALQINIDA

H.O. Yusupova

*Buxoro davlat pedagogika institute,
Xorijiy tillar kafedrası f.f.n., dotsenti
E-mail: hilola5.hy@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq o‘gzaki ijodining yorqin namunasi hisoblangan “Alpomish” dostonining qoraqalpoq versiyasi ingliz tiliga tarjimasi xususida so‘z yuritiladi. Maqola tarjimaning muqobilligi, estetik saviyasi, o‘zbekona milliylikning ifodalanishi muammolarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: doston, milliylik, folklor, tarjima, variant, tadqiqot.

Аннотация. В данной статье рассматривается перевод на английский язык каракалпакского варианта эпоса «Алпомыш», считающегося ярким образцом узбекского фольклора. В статье рассматриваются проблемы альтернативного перевода, эстетического уровня, выражения узбекской национальности.

Ключевые слова: эпос, народность, фольклор, перевод, вариант, исследование.

Annotation. This article discusses the translation into English of the Karakalpak version of the epic “Alpomish”, which is considered a striking example of Uzbek folklore. The article discusses the problems of alternative translation, aesthetic level, and expression of Uzbek nationality.

Key words: epic, nationality, folklore, translation, variant, research.

Adabiyot rivoji taraqqiyotining ajralmas yo‘nalishi – bu tarjimashunoslik yo‘nalishidir. Chunki aynan tarjima sabab xalqlar adabiyoti boshqa mamlakat va elatlar hayotiga kirib boradi. Tarjimashunoslik va bu sohada qilingan ishlar natijasi millat va elatlar o‘rtasida ham ma‘naviy, ham madaniy ko‘prik sifatida xizmat qiladi. Tarjima taraqqiyoti nafaqat shu sohaning, balki fan va texnikaning, madaniyat va ma‘rifatning, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning rivojini ta‘minlab beradi. Tarjima tahlillari va muqoyasasi tili va madaniyati uzoq bo‘lgan bir millatning o‘ziga xos xususiyatlarini boshqa millat vakillariga tanishtirishda yaqindan yordam beradi, shu bilan bir qatorda dunyo xalqlari adabiyoti o‘rtasida vositachi vazifasini o‘taydi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi boy merosimiz sanalib, qator janrlarni o‘z ichiga oladi. Bu meros millatimiz mafkurasi va ruhiyatini aks ettiradi. Undan xalqimizning milliy mentalitetining xususiyatlari ko‘rinib turadi. Ana shu xususiyatlar bilan qiziqqan qator xorij olimlari o‘z kuchlarini o‘zbek folklori namunalarini o‘z o‘quvchilariga yetkazishga bel bog‘ladilar. O‘zbek folklori namunalari tarjimasining G‘arbda amalga oshirilishi yuzasidan qirqqa yaqin manbani aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Ularning aksariyati Angliya, Amerika va Germaniyada nashrdan chiqqan.

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodining dunyo tillaridan biri – ingliz tiliga qilingan tarjimalari estetik saviyasini o‘rganish va unda o‘zbekona milliylikning ifodalanishi muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash zamon taqozosiga

aylanib qoldi. Zero, bu sohaga Herman Vamberi, Idris Shoh, Hasan Paksoy, Merilin Petersen, Frenk Adamslar o‘z imkoniyatlari darajasida hissa qo‘shganlar. Biroq bu o‘girmalar hanuzgacha tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelmoqda. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining ingliz tiliga qilingan tarjimalarini tadqiq qilish va ilmiy, badiiy jarayonning o‘zbek-ingliz folkloriy aloqalaridagi o‘rnini belgilash, tahlil etish o‘zbek tarjimashunosligidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining durdonasi hisoblanmish “Alpomish” dostonining qoraqalpoq versiyasi ilk bor ingliz tiliga Oksford universiteti doktori, amerikalik olim Hasan Paksoy tomonidan tarjima qilinganini yuqorida eslatgan edik. U o‘zining doktorlik dissertasiyasi asosida “Alpamysh”: Central Asian Identity under the Russian Rule” (“Alpomish”: Markaziy Osiyoning o‘zligi rus hukmi ostida”) nomli kitobini 1989 yilda AQShda nashrdan chiqardi. Muallif tarjima uchun dostonning Abubakir Divayev (Divay) tomonidan 1922-yilda xato tarzida qozoq eposi sifatida nashr etilgan, aslida esa Jiemurod jirov Boymuhammedovdan yozib olingan qoraqalpoq versiyasi namunasi olgan[Safarov O. 1:31]. Hasan Paksoy dostonni xalq tarixi va madaniyati bilan bog‘lab o‘rgangan birinchi xorijiy olimlardan hisoblanadi. Muallifning bu kitobi kirish, to‘rt bob, bibliografiya va ilovadan iborat.

Kitobning “Alpomish” va turkiy doston janri” deb nomlangan birinchi bobida doston tarqalgan hudud va uning aytilishi jarayoni haqida to‘liq ma’lumot berilgan. Shu bilan bir qatorda “O‘g‘uznoma”, “Manas”, “Go‘ro‘g‘li”, “Qirq qiz”, “Tohir va Zuhra” kabi xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar bilan “Alpomish” dostoni o‘rtasidagi munosabat haqida ham mulohazalar bildirilgan.

Ikkinchi bob “Alpomish” dostonini yo‘q qilishga hamda saqlashga bo‘lgan urinishlar» deb nomlanib, unda Markaziy Osiyo hududidagi mustamlakachilik davri va bu davrda millatning ma’naviy boyligiga munosabat, bu siyosatga qarshi O‘rta osiyoliklarning olib borgan harakatlari yoritilgan. U o‘z ishida mashhur olimlar V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, T.M.Mirzayev kabi o‘zbek folklorshunos olimlarining tadqiqotlaridan keng foydalangan. Biroq H.Paksoy bu ishida faqat 1968-yilgacha amalga oshirilgan tadqiqotlargaгина suyangan. Bu sohadagi keyingi ishlar muallif tomonidan o‘rganilmaganligi sabab tadqiqotga kiritilmagan.

Kitobning uchinchi bobi to‘laligicha “Alpomish” dostoniga bag‘ishlangan bo‘lib, bobda dostonning A.Divayev nashr etgan qoraqalpoq versiyasi tarjimasi kiritilgan. Paksoy doston tili haqida fikr yuritar ekan, quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “The language of Alpamysh is Chagatay... The Chagatay language is alive and well across Central Asia. It has never died, and is often referred to as “Turkistani”, or simply by its earlier name Turki. The designation “Turkistani” given to the same dialect certainly carries political implications, conjuring up

memories of more ancient associations and of the Turkistani movement at the turn of the 20th century.

The label Turki refers to the language of Yesevi, Timur, Babur, Ulugbek, Navai and Baykara among other significant historical figures” [Paksoy H.B. 2:53].

H.Paksoy dostoning nega aynan shu variantini tanlaganligining quyidagi beshta sababini keltiradi:

1. Aside from the fact that it is the earliest printing outside Kazan, it constitutes a very early attempt by an individual (Divay) to save the dastan from extinction. -

2. The transcription and printing pre-date the 1917 Revolution. (The majority of the Alpamysh printings are the products of the post-revolutionary efforts.)

3. It is in the Arabic alphabet, which the earliest of the three major alphabets in which this dastan has been published.

4. The specific location and conditions in which it was collected are known. -

5. It is published to observe the “time-layers” in the text, juxtaposed over prolonged historical periods [Paksoy H.B. 2:53].

Har bir badiiy yodgorlik muayyan davr va xususiyatlar tasvirini, qisman bo‘lsa-da, o‘zida aks ettiradi. Mutarjim esa ana shu ruhni asliyatga xos tarzda to‘liq aks ettirish mas’uliyatini olmog‘i lozim. Tarjimon asarni kitobxon yoki o‘zining xohishi darajasida qayta yaratmasligi, balki o‘z imkoniyatini kitobxonning asarni tushinishi darajasiga ko‘tarishi kerak. Tarjima adabiyotlarni mexanik ravishda bir millatdan ikkinchi millatga o‘tkazadigan transport vositasi emas, balki millatlarni yaqinlashtiradigan, milliy tushunchalarini uyg‘unlashtiradigan omil. Bu orqali umumjahon madaniyati paydo bo‘ladi, millatlararo ma’naviy-ma’rifiy, shu bilan bir qatorda madaniy aloqalar o‘rnatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сафаров О. Тўра Мирзаев// Адабий портрет. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2006
2. Paksoy H.B. “Alpamysh” Central Asian Identity under Russian Rule. USA, AACAR, 1989
3. YUSUPOVA, K. U. (2021, April). Giving stable compounds and expressions in translation. In *E-Conference Globe* (pp. 477-481).
4. Юсупова, Хилола Уктамовна. "УЗБЕКСКИЙ ФОЛЬКЛОР ЗА РУБЕЖОМ." *Филологические науки. Вопросы теории и практики* 3 (2010): 15-17.
5. Hilola Yusupova. (2023). NOVEL OF EDUCATION (BILDUNGSROMAN): HISTORY OF DEVELOPMENT AND PECULIARITIES. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 1(7), 18–23. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/ss/article/view/2214>